



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



ROMANTIZM OQIMINING YEVROPA VA O‘ZBEK ADABIYOTIGA TA’SIRI

Shojonova Mahliyo Azamat qizi

*Nukus davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17272342>

Annotatsiya: Ushbu maqolada romantizm oqimining shakllanishi, uning Yevropa va o‘zbek adabiyotidagi o‘ziga xos talqinlari tahlil qilinadi. Romantizm oqimining nazariy asoslari, estetik tamoyillari hamda ijodkorlar dunyoqarashida aks etgan jihatlari yoritiladi. Qiyosiy tahlil orqali romantizmning Yevropa adabiyotidagi individualizmga yo‘naltirilgan talqini va o‘zbek adabiyotidagi milliy uyg‘onish ruhida talqinlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Romantizm, Yevropa adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, Cho‘lpon, Fitrat, Bayron, Gyote, Shiller, qiyosiy tahlil.

Abstract: This article analyzes the formation of the Romantic movement, its specific interpretations in European and Uzbek literature. The theoretical foundations of the Romantic movement, aesthetic principles, and aspects reflected in the worldview of its creators are highlighted. Through comparative analysis, the interpretation of Romanticism in European literature oriented towards individualism and its interpretations in the spirit of national revival in Uzbek literature are studied.

Keywords: Romanticism, European literature, Uzbek literature, Cholpon, Fitrat, Byron, Goethe, Schiller, comparative analysis.

Аннотация: В статье анализируется становление романтического течения, его особенности интерпретации в европейской и узбекской литературе. Раскрываются теоретические основы романтизма, эстетические принципы и аспекты, отразившиеся в мировоззрении его творцов. В рамках сравнительного анализа изучается интерпретация романтизма в европейской литературе, ориентированной на индивидуализм, и его интерпретации в духе национального возрождения в узбекской литературе.

Ключевые слова: романтизм, европейская литература, узбекская литература, Чолпан, Фитрат, Байрон, Гёте, Шиллер, сравнительный анализ.

Kirish. Adabiyot taraqqiyotida har bir oqim va yo‘nalishning o‘z o‘rni bor. Ular nafaqat badiiy-estetik jarayonni boyitadi, balki jamiyatning ma’naviy hayotiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. XIX asrda shakllangan romantizm oqimi inson ruhiyati, orzu-umidlari, erkinlikka intilishlari va adolat uchun kurash motivlarini ilgari surishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Romantizm Yevropa adabiyotida keng rivojlangan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyotida ham o‘ziga xos milliy talqinini topgan.

Yevropa adabiyotida romantizm XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida shakllanib, asosan klassitsizmga qarshi oqim sifatida yuzaga chiqdi. Klassitsizmga aql, tartib va mantiq birinchi o‘rinda turgan bo‘lsa, romantizmga inson ruhiyati, tuyg‘u, erkinlik va orzu-intilishlar ustuvor bo‘ldi. Romantik adabiyot qahramonlari



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” *mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya*



ko‘pincha jamiyat me‘yorlariga qarshi chiqqan, mustaqil fikrlovchi, erkinlik uchun kurashuvchi shaxslar sifatida gavdalanirildi. Shiller, Gyote, Bayron, Gyugo kabi ijodkorlar Yevropa romantizmining eng yirik namoyandalari hisoblanadi. Ularning asarlarida qahramonlar ichki iztirob, erkinlikka tashnalik, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi isyon ruhida yaratilgan.

Romantizm oqimi adabiyotda insonning ichki dunyosini, orzu-intilishlari va idealga bo‘lgan intilishlarini yuksak badiiy vositalar orqali ifodalashga intildi. Shu sababli romantik adabiyotda qahramonlarning hayoti ko‘pincha real voqelikdan yuqoriga ko‘tarilib, ularning orzu-havaslari bilan uyg‘unlashib ketadi. Yevropa romantiklari — Bayron, Gyote, Shiller kabi ijodkorlarning asarlarida qahramonlar shaxsiy erkinlik, adolat va go‘zallik uchun kurashadi. Ayniqsa, Bayron qahramonlari inson ruhiyatidagi tug‘yon, erkinlikka tashnalik va jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi isyon timsoli gavdalanadi.

O‘zbek adabiyotida romantizm oqimi milliy uyg‘onish davri bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u jadidchilik harakati g‘oyalari bilan hamohang tarzda rivojlandi. Cho‘lpon, Fitrat, Elbek, Usmon Nosir singari ijodkorlarning asarlarida romantizmning o‘ziga xos milliy talqini shakllandi. Ularning qahramonlari ko‘proq xalq ozodligi, milliy uyg‘onish, adolat va ma‘rifat uchun kurashadi. Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida o‘z xalqining qismati uchun qayg‘uruvchi qahramonlar romantik orzu va idealizm ruhida gavdalanadi.

Shuningdek, romantizm o‘zbek she‘riyatida ham keng aks etdi. Usmon Nosir she‘rlari insoniy ehtiros, orzu, go‘zallikka tashnalik va vatanparvarlik bilan sug‘orilgan bo‘lib, o‘zbek romantizmining yorqin namunalaridan biridir. Romantik ruh she‘riyat orqali xalqning ruhiy olamiga chuqur kirib bordi va o‘zbek adabiyotining yangi bosqichga ko‘tarilishida muhim rol o‘ynadi.

Umuman olganda, Yevropa va O‘zbek adabiyotidagi romantizmni qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasida inson orzu-umidlarini ulug‘lash, erkinlik va adolat g‘oyalarini kuylash asosiy yo‘nalish sifatida qaralgan. Ammo Yevropa romantizmi ko‘proq individualizmga urg‘u bergan bo‘lsa, O‘zbek romantizmi milliy g‘oya va xalqparvarlik ruhida shakllandi. Bu esa romantizm oqimining har bir adabiyotda o‘ziga xos talqin va rang-barangligini tasdiqlaydi. O‘zbek adabiyotida romantizm XX asr boshlarida shakllanib, jadidchilik harakatining ma‘rifiy-ma‘naviy qarashlari bilan uyg‘unlashdi. Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi ijodkorlarning asarlarida romantik ruh va milliy uyg‘onish g‘oyalari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Romantik asarlarda xalq ozodligi, millatning kelajagi, erkinlik va adolat motivlari asosiy mavzu sifatida ilgari surilgan. Bu o‘ziga xos romantizm o‘zbek



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



adabiyotida milliy ongning shakllanishi va mustaqillik g‘oyalarning kuchayishida muhim rol o‘ynadi.

Yevropa va O‘zbek romantizmini qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ularning umumiy jihatlari bilan bir qatorda farqlari ham mavjud. Yevropa romantizmi ko‘proq individual shaxsning ichki kechinmalari va erkinlik uchun kurashini tasvirlasa, O‘zbek romantizmi xalq ozodligi, milliy uyg‘onish va ma‘rifatparvarlik ruhida shakllandi. Demak, romantizmning mohiyati umumiy bo‘lsa-da, uning milliy talqinlari turlicha yo‘nalishlarda rivojlangan.

Xulosa qilib aytganda, romantizm oqimi adabiyot tarixida inson orzu-intilishlarini ulug‘lash, erkinlik va adolat uchun kurash g‘oyalari ilgari surgan eng muhim oqimlardan biridir. U Yevropa adabiyotida individualizm ruhida, O‘zbek adabiyotida esa milliy uyg‘onish va xalqparvarlik ruhida shakllandi. Shu bois romantizm nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki milliy va ma‘naviy uyg‘onishning ham kuchli ifodasi sifatida adabiyot tarixida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bayron J. She‘rlar to‘plami. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1975.
2. Fitrat A. Asarlar. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2000.
3. Gyote I.V. Faust. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1980.
4. Hayitmetov A. O‘zbek adabiyotida romantizm. – Toshkent: Fan, 1978.
5. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Yozuvchi, 1991.
6. Usmon Nosir. She‘rlar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985.
7. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
8. Ziyayeva D. Qiyosiy adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2012.
9. Shiller F. Don Karlos. – Moskva: Xudozhestvennaya literatura, 1985.
10. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1994.